



SURXONDARYO QARLUQ VA QIPCHOQ SHEVALARIDA UMUMIY BO'LGAN LEKSIK QATLAM

Eshanqulov Dilmurod Xurramovich

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi,
Tosh DO'TAU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: dilmurodeshanqulov109@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15001659>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo Qarluq va qipchoq shevalarida hamda turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar haqida fikr yuritiladi. O'zbek tilining asosini tashkil qiluvchi tub o'zbekcha so'zlar boshqa shevalar singari Surxondaryo qarluq va qipchoq shevalarining ham asosini tashkil etadi. Bunday so'zlar ba'zi fonetik farqlar bilan boshqa qardosh turkiy tillar uchun ham umumiylikka egaligi haqida ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** turkiy til, qarluq, qipchoq, o'g'uz, orqador, "Devoni lug'atit-turk", buro'm-(muyulish), yenchi, basalqa, umumturkiy leksik qatlam.*

Kirish (Introduction) Markaziy Osiyo hududida yashovchi mahalliy turkiy xalqlar tillarining leksik qatlamidagi asl turkiy so'zlar orasida ko'p jihatdan o'xshashlik bor. Bu o'xshash so'zlar eng muhim tushunchalarni ifodalaydi va bir xil vazifada ishlatiladi. Lekin ba'zi so'zlar turkiy tillarning o'z fonetik talaffuz me'yorlariga bo'ysungan holda biroz boshqacharoq talaffuz qilinadi. Demak, biz turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar haqida fikr yuritish ekanmiz bunda fonetik o'zgarishlar emas, tub va tipologik o'zgarishlarni nazarda tutish darkordir. Agar shevalar leksikasining lug'at boyligiga nazar tashlasak, uning tarkibida tub o'zbekcha so'zlar asosiy o'rinni egallaydi. O'zbek adabiy tili va o'zbek shevalari uchun umumiy bo'lgan o'zbekcha so'zlarni faqat bitta turkiy tilning o'zigagina xos deb bo'lmaydi, balki bunday so'zlar ko'pchilik turkiy xalqlarning lug'at boyligiga oid so'zlar bo'lib, ular shu turkiy tillar leksikasining negizini tashkil qiluvchi asosiy manbadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review) Umumiy o'zbek tilining asosini tashkil qiluvchi tub o'zbekcha so'zlar boshqa shevalar singari Surxondaryo qarluq va qipchoq shevalarining ham asosini tashkil etadi. Bunday so'zlar ba'zi fonetik farqlar bilan boshqa qardosh turkiy tillar uchun ham umumiylikka egadir. Masalan, Surxondaryo o'zbek shevalarida og'a, ag'a, ove, ag'uz, arqa, bavo'r, tish, qash, burun, yomg'ir (turkman); aga, ago'z, arka, bag'ur, dash, gash, burun, yalo'sh: ag'a, auo'z, bao'o'z, bao'o'r, yagush va yana shu singari so'zlar.

Bunday umumturkiy so'zlar odatda aniq hayotiy tushunchalarni ifodalaydi va yasalishi uchun zaxira bo'lib xizmat qiladi. Bunday so'zlarni biror dialekt yoki faqat o'zbek adabiy tiliga mansub bo'lgan so'zlar deb aytilish mumkin emas.



Surxondaryo qarluq va qipchoq shevalari leksikasidagi soʻzlarning asosini umumxalq oʻzbek tili va uning shevalaridagi kabi qadimgi turkiy yozma obidalarga xos boʻlgan soʻzlar tashkil etadi. Buni XI asrning mashhur olimi, tilshunosi Mahmud Qoshgʻariy oʻzining “Devoni lugʻatit-turk” asari bilan solishtirganda yana ham yaqqolroq namoyon boʻladi. Surxondaryo shevalarida quyidagi soʻzlarni Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni lugʻatit-turk” asaridagi soʻzlar bilan qiyoslaymiz: j-lovchi alqoʻndi, y-lovchi olqune-sovun qoldigʻi, alqindi-tamom boʻldi; j-lovchi avradi-ovradi, y-lovchi anduz-togʻ piyozi, anduz-yerdan qazib olinadigan oʻsimlik ildizi: j-lovchi axoʻr-oxur: j-lovchi, ovroʻndi y-lovchi, ogʻrindi-xafa boʻldi, ogʻrindi-alamlandi (“Devoni lugʻatit-turk”).

Yuqorida qayd etilgan “Devoni lugʻatit-turk” asaridagi soʻzlar, ayrim fonetik oʻzgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan.

Surxondaryo oʻzbek shevalari boʻyicha keltirilgan mazkur qiyosiy misollar dialektolog A. Ishayevning “XI asr yozma yodgorligi boʻlgan devondagi til faktlarining asosiy qismi hozirgi oʻzbek adabiy tiliga nisbatan oʻzbek tilining qarluq, qipchoq, oʻgʻuz lahjalariga mansub shevalarda koʻproq saqlangan” degan fikrni toʻla tasdiqlaydi [Ishayev, 1971; 66-67-b].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Biz tekshirayotgan mazkur shevalar tarkibidagi koʻpgina soʻzlar qadimgi yozma obidalardan bizgacha fonetik, semantik oʻzgarishlar bilan yetib kelgan. Bunday soʻzlar vaqt oʻtishi, tilning ravnaq topishi va rivojlanishi natijasida yangi maʼno hosil qilib, bora-bora shakli va maʼnosidan uzoqlashadi. Masalan: alang-yalang, tekis (“Devoni lugʻatit-turk” 1.154), eleng-ariq boʻyiga chiqarilgan tuproq; alchaq-yumshoq tabiatli (“Devoni lugʻatit-turk”1.162), engere-ekini yigʻib olingan maydon (“Devoni lugʻatit-turk” 1.120), oeloq-uloq (Devoni lugʻatit-turk”1,141), suyel-sugal; sogal-kasal (Devoni lugʻatit-turk”1,375), Tagʻa-amaki (“Devoni lugʻatit-turk”256), tagʻa-togʻa kabi.

Agar shunday soʻzlarga xronologik jihatdan nazar tashlaydigan boʻlsak, ularning fonetik qiyofasi va semantik holatiga koʻra qadimgi maʼnosidan ancha uzoqlashganiga guvoh boʻlamiz. Professor Sh. Shoabdurahmonov aytganidek “Fonetik va maʼno jihatdan uzoqlashish eski sifat elementlarining paydo boʻlishi bilan yuzaga kelgan [Shoabdurahmonov, 1961; 285-b.].

Surxondaryo qarluq, qipchoq shevalarining leksik qatlamida shunday soʻzlar mavjudki, ularning anchagina qismi hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanmaydi. Lekin koʻpgina turkiy adabiy tillarda ishlatiladi. Masalan: j-lovchi: Boʻltoʻr-oʻtgan yil, buldoʻr (“Devoni lugʻatit-turk”, 1425-bet), qozoqcha boʻldoʻr, tatarcha bildir, shaxal-shoxal (chiya boʻri) qiyoslaylik: qoraqalpoqcha- shagʻal, noʻgʻaycha-shakal kabi.



Tahlil va natijalar (Analysis and results) Umumxalq o'zbek tili, uning shevalari, shuningdek, Surxondaryo o'zbek shevalari leksik tarkibi bilan adabiy turkiy tillar leksik tarkibi orasida ma'lum bir mushtaraklik saqlangan bo'lsa ham, o'zbek tilining faqat o'ziga xos bo'lgan so'zlar ham shevalar lug'at tarkibidagi so'zlarning anchagina qismini tashkil etadi. Ba'zan bir qancha turkiy tillarning lug'at boyligida bo'lishi mumkin, lekin ma'no hajmiga ko'ra o'zaro biri ikkinchisidan farq qiladi. Masalan, Surxondaryo o'zbek shevalaridagi "basalqa" so'zi oldin-keyin tug'ilgan bolalar ma'nosini anglatadi. Qozoq tilidagi "basalqa" so'zi esa "aql o'rgatish" ma'nosida ishlatiladi [Shoabdurahmonov,1961;285-b]. Ammo bunday so'zlar ma'no jihatidan qanchalik farq qilmasin, umumturkiy leksik qatlamning lug'at boyligi bo'lib qolaveradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Surxondaryo shevalarida uchraydigan ayrim umumo'zbek tilining o'z qo'shimchalari yoki boshqa tillardan olingan qo'shimchalarni qo'shish va ikki so'zning birikuvidan yangi ma'no kasb etadigan shevalarga xos bo'lgan so'zlar ham yuzaga kelgan:

1. O'zbek tilining o'z so'zlariga o'zbek tili qo'shimchalarini qo'shish orqali yuzaga kelgan shevaga xos so'zlar: buro'm-bur-im (muyulish), yenchi-yenche (uloq, qo'zilarga en soluvchi shaxs), uyrim-uyur-im (girdob), kuligich-kul-igich (odam yuzidagi kulgich), achguch-achg'och (kalit), qirg'o'ch-qir-go'ch (kapgircha), xekkelik-xekke-lik (sezgirlik).

2. O'zbekcha o'zak so'zlarga tojik tili qo'shimchalarini qo'shish orqali paydo bo'ladigan shevaga xos so'zlar: orqador-orqa-dor (achchig'i tez chiqadigan odam), emchekdesh (emakdosh), doyrebent (to'g'on), telpekdo'z-telpek-do'z (telpak tikuvchi), arqatarash (tarashla fe'lidan).

3. Ikki so'zning birikuvidan yuzaga keladigan shevaga xos shunday birliklar borki, ularning har bir komponenti o'zbek adabiy tiliga ma'lum bo'lsa-da, lekin o'sha komponentlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan so'z adabiy tilda uchramaydi. Masalan, yeryoge-kerosin, qolag'och-qo'lyog'och (oxirda biror narsani yanchish uchun ishlatiladigan cho'qmor), xoppasu (chippakka chiqmoq), ochatoli (molning son go'shti) kabi leksemalar shevalarning o'zida hosil bo'lgan so'zlar bo'lib ulardan ayrimlari boshqa o'zbek shevalarida hamda ba'zi turkiy tillarda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboev, S. (2021). *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
2. Ashirboyev S. *O'zbek tili. Surxondaryo o'zbek shevalari*. Toshkent, 1985.
3. Enazarov T.J., Karimjonova V.A., Ernazarova M. S, Mahmadiyev Sh.S., K. G'. Rixsiyeva. *"O'zbek dialektologiyasi"*. Toshkent, 2012.



4. Ishayev A. *Devoni lug'otit-turk va o'zbek shevalari*. Toshkent, 1971.
5. Rahimov S. *Surxondaryo viloyati o'zbek shevalari leksikasi*. Toshkent, 1974.
6. Sh. Shoabdurahmonov. *Tayanch shevalar leksikasidan*. Toshkent, 1961.
7. Sh. Shoabdurahmonov. *Tayanch shahar shevalar leksikasidan*, O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1961.
8. Shoniyozov, K. *Qarluq davlati va qarluqlar: O'zbek davlatchiligi tarixidan*. Toshkent: Sharq, 1999.
9. Fayziyeva X.Ch., *O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining lug'at xususiyati*", PhD. diss. Termiz, 2023.
10. Xolova M.A. *O'zbek milliy korpusi tadqiqi*, PhD. diss. Termiz, 2022.